


## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2022 yilning 1 yanvar holatiga 20 684 ta kichik biznes subyektlarini (dexqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2021 yilning shu davriga nisbatan 110,8 foizga ko'pdir).

**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
2022 yilning 1 yanvar holatiga (jamiga nisbatan foizda)  
(dexqon va fermer xo'jaliklarisiz)



Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 32,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida (23,2 %), sanoat sohasida (19,1 %) va qurilishda (5,7 %) tashkil etilgan.

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– investitsiyalar hajmi 10 520,9 mlrd. so'mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 79,6 %) o'zlashtirildi va 2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 foizni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 2 884,0 mlrd. so'mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 93,9 %) va 2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 112,5 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4 563,8 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 52,4 %) tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 4 014,5 mlrd. soʻmlik koʻrsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 62,5 %) 2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan oʻsish surʻati 119,9 foizni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi 7 958,0 mlrd. soʻmni (jami chakana tovar aylanmasining 87,2 %) 2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan oʻsish surʻati 136,0 foizni tashkil qildi;


– tovarlar eksport hajmi 91,6 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 46,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 283,3 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 84,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

– avtomobil transportida 36 344,6 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 93,9 %) 2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan oʻsish surʻati 106,2 foizni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 88 522,2 ming yoʻlovchi tashilib (umumiy yoʻlovchi tashishdagi ulushi 95,0 %) 2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan oʻsish surʻati 106,2 foizni tashkil qildi;

2021 yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – 81,2 foizni, sanoatda – 52,4 foizni, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida – 99,1 foizni, qurilishda – 93,9 foizni, eksportda – 46,6 foizni tashkil qilgan.

#### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi




**Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari**  
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)


Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahar (1 133,1 mlrd. so'm), G'allaorol (1 271,4 mlrd. so'm), Forish (345,6 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

Yangiobod (103,0 mlrd. so'm), Baxmal (104,5 mlrd. so'm) va Do'stlik (89,7 mlrd. so'm) tumanlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi pastligicha qolmoqda.

**2021 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik  
biznesda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**



**2021 yil yanvar- dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**



Jizzax viloyati bo'yicha ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (968,8 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (679,8 mlrd. so'm), G'allaorol (455,7 mlrd. so'm) va Zomin (444,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2021 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Qishloq xo'jaligi</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>52,4</b>	<b>93,9</b>	<b>62,5</b>	<b>99,1</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	42,0	92,4	37,7	98,9
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	57,8	100,0	59,3	99,6
Baxmal	100,0	100,0	79,9	99,3
G'allaorol	98,5	100,0	87,1	99,2
Sharof Rashidov	59,5	100,0	81,7	99,6
Do'stlik	10,5	100,0	73,2	99,6
Zomin	71,5	74,1	79,6	99,0
Zarbdor	34,4	100,0	77,3	99,8
Zafarobod	22,0	98,8	77,3	98,4
Mirzacho'l	100,0	87,2	70,8	98,5
Paxtakor	58,5	100,0	75,5	97,9
Forish	87,0	100,0	84,5	99,0
Yangiobod	100,0	100,0	64,4	99,3

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Do'stlik (10,5 %), Zafarobod (22,0 %), Zarbdor (34,4 %) tumanlarida nisbatan kam, Baxmal (100,0 %), Mirzacho'l (100,0 %), Yangiobod (100,0 %) tumanlarida nisbatan yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Jizzax shahrida (92,4 %), Zomin tumanida (74,1%), Zafarobod tumanida (98,8%), Mirzacho'l tumanida (87,2%) kam foizni qolgan tumanlarda esa yuqori o'ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (37,7 %), Arnasoy tumani (59,3 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo'lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.